

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari

Z. Ziyayev
2024-y. “28” iyul

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

KORXONA VA TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT OLISH

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot olish.

1.2. Xizmat natijasi

So‘ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritib, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma’lumot bazasidan ochiq axborotlarni bepul olish.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

Statistika agentligining rasmiy sayti www.stat.uz.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2014-yil 30-maydagi “Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System”da ishlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 3-mb-son qarori (ro‘yxat raqami 2594, 2014-yil 12-iyun).

1.4. Xizmat qabul qiluvchilari

Jismoniy va yuridik shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

Oʻrnatilmagan.

1.7. Tasdiq berilish muddati

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

KTYADRdagi korxona va tashkilotlar toʻgʻrisidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq boʻlgan maʼlumotlar:

- roʻyxatdan oʻtkazuvchi organ
- davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan sana
- davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan raqami
- yuridik shaxsning nomi
- tashkiliy-huquqiy shakli
- IFUT kodi (amalga oshirilayotgan faoliyat turi)
- DBIBT kodi (idoraviy mansublik kodi)
- kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi
- faollik holati
- ustav fondi
- taʼsischilar va ularning ustav fondidagi ulushi haqida maʼlumotlar (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno)
- aloqa maʼlumotlari (elektron pochta manzili, aloqa telefoni, MHOBT kodi, joylashgan yeri (pochta manzili))
- rahbari (soliq organlari maʼlumotlari asosida)

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

Oʻrnatilmagan.

2.3. Soʻrov boʻyicha xabardor qilish

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

2.4. Xizmat koʻrsatish joyi haqida xabardor qilish

Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulugʻbek tumani, 100192, Mustaqillik shoh koʻchasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Oʻrnatilmagan

3. Xizmat koʻrsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

3.2. Kutish shartlari

Oʻrnatilmagan.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatish bosqichlari

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq ma'lumotlarni olish uchun www.stat.uz saytga kirish lozim. O'ng tarafdagi "Interaktiv xizmatlar" menyusidan "Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot" bo'limini tanlash kerak. So'ngra so'ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritish lozim.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

O'rnatilmagan.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika qo'mitasining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3. Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot olish bo'yicha
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining rasmiy www.stat.uz saytiga kiriladi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	“Interaktiv xizmatlar” menyusidan “Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot” bo'limi tanlanadi.	O'z xohishiga ko'ra
3-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	So'ralayotgan yuridik shaxsning STIRi kiritiladi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Statistika agentligi	KTYADRdagi korxona va tashkilotlar to'g'risidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar taqdim etiladi.	Real vaqt rejimida